

## JIZZAX VILOYATIDAGI QURG‘OQCHILIKKA CHIDAMLI DARAXT VA BUTA TURLARI

**Ихромов Улуг‘бек**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,  
Toshkent filiali O‘rmonchilik 22-32 guruh 2-kurs talabasi

### *ANNOTATSIYA*

*Ushbu maqolada Jizzax viloyatining turli iqlimiga moslashgan daraxt va buta turlari bilan tanishish, ular haqida ma‘lumot olish, tarqalish hususiyati va nima uchun kamayib ketayotgani haqida qisqacha tanishamiz.*

***Kalit so‘zlar:** Kserofitlar , atmosfera sirkulatsiyasi, Introduksiya, kontinental iqlim, ixota, tuproq, Aylant yoki Xitoy shumtoli, Sinuvchan tol, suv resurslari.*

## DROUGHT-RESISTANT TREE AND SHRUB SPECIES IN THE JIZZAKH REGION

### *ABSTRACT*

*In this article we will briefly get acquainted with the types of trees and shrubs adapted to various climatic conditions of the Jizzakh region, learn about them, about the peculiarities of distribution and why they are declining.*

## ЗАСУХОУСТОЙЧИВЫЕ ПОРОДЫ ДЕРЕВЬЕВ И КУСТАРНИКОВ В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

### *АННОТАЦИЯ*

*В этой статье мы кратко познакомимся с видами деревьев и кустарников, адаптированных к различным климатическим условиям Джизакской области, узнаем о них, об особенностях распространения и о том, почему они сокращаются.*

O'zbekiston Respublikasining maydoni 78.8% ini tekisliklar, 21.2% ini tog'liklar va tog' oldi hududlarni o'z ichiga oladi. Xududining deyarli 5/4 qismi yarimcho'l va cho'lliklarni, qolgan qismi janubiy-sharqiy va sharqiy xududlarda baland tog'liklardan iborat. O'zbekistonda kontinental iqlimning paydo bo'lishida uning geografik o'rni, quyosh radiatsiyasi hamda atmosfera sirkulatsiyasi ta'sir etadi. Asosan uzoq qurg'oqchilik, issiq yoz, yomg'irli bahor va noustivor qishni tashkil etadi. Mamlakat hududiga turli havo oqimlarining kirib kelishi uchun juda oson hudud hisoblanadi. Shimol, shimoliy-g'arb va g'arbiy tarafdin atlantika va arktika havo oqimlari kirib keladi. Hozirgi vaqtga kelib yoz faslida havo harorati 30 °C dan yuqoriga qarab ko'tarilib bormoqda. 2023-yil Yanvar oyining o'rtacha havo harorati shimolda -8 °C gacha, janubda esa 0-4°C gacha yetdi. Bu o'z navbatida mamlakatning yashilliga turlicha taqdir qilmoqda.

Respublikada issiq hududlaridan biri bu Jizzax viloyati hisoblanadi. Ushbu hudud relyefi tog'lik, qir va tekisliklardan iborat. Shuning uchun ham ob-havosi, tabiati hamda ekollogiyasi ham bir biridan sezilarli darajada farq qiladi.

Tog'li hududlari asosan Baxmal, Zomin va Forish hududlari hisoblanadi. Tog'yon bag'irlarida yovvoyi jiyda, archa, bodom, yong'oq, na'matak kabilar o'sadi.

Jizzax viloyatining asosiy qismini tekisliklar va qir-adirliklar bo'lganligi uchun Qishloq xo'jaligida keng miqyosda foydalanadi. To'qayzorlar o'zlashtirilib ekin ekish uchun tayyorlangan. Iqlim issiqlika moil bo'lganligi uchun **kserofit** o'simliklar ham o'sadi. Qishloq xo'jalik ekinlarini tashqi muhitdan himoya qilish va aholi yashash joylari, qishloq, shahar, mahallalarni ko'klamzorlashtirishda, shu hududda o'suvchi va shunga o'xshash hudud, mintaq va joydan manzarali daraxt va butalar introduksiya qilingan yoki iqlimlashtirilgan. Ixotazorlar va daraxt plantatsiyalari yaratilgan.

Tekislik va qir-adirliklarda tabiiy holda o'suvchi jiyda, chilonjiyda, tol, tut, sho'ra, saksovul, yulg'un, aylant kabi daraxtlarga parvarish talab qilmaydi. Pista daraxti ham o'sishga moilligi bor lekin unga ko'proq parvarish talab qilinadi.

Markaziy Osiyoning issiq va quruq iqlimiga eman, shum, zarang, terak, oq akatsiya, katalpa, kariya, magnoliya, lola daraxti, jo'ka, qarag'ay, qoraqarag'ay, archa,

sarv, shamshod va boshqa ko‘plab daraxt va butalami iqlimlashtirishda F.N. Rusanov, T.I. Slavkina, N.F. Rusanov, A.U. Usmonov, G.P. Ozolin, V.P. Fimkinning xizmatlari beqiyosdir.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari dala maydonlari chegaralarini ixotazorlashda Tut daraxtidan keng miqyosda foydalaniladi. **Tut (Morus) turkumining** bir nechta turi iqlimga moslasha olgan va madaniylashgan. Bularga misol qilib **Oq tut (Morus alba L.)** va **Qora tut (Moras nigra L.)**. Daraxtining ildizi, tanasi, shoxlarining baquvvatligi kuchli shamollarga ham dosh bera oladi. Tanasini tez tiklash qobiliyatiga ega. Ko‘chatlik davrida yerga yaxshi o‘rnashishi uning keyinchalik ekologik (iqlim, shamol, qurg‘oqchilikka ) va biotik (hayvonlar va turli zararkunanda hashoratlar) omillarga qarshi turishida katta ro‘l o‘ynadi.

**Oq tut (Morus alba L.)**. Ushbu tut turi tabiiy ravishda Markaziy Osiyo, keng tarqalgan va madaniylashtirilgan. Balandligi 15 metrgacha bo‘lib, tana diametri 80 sm gacha yetadi. 250 yilgacha yashashi aniqlangan..Oq tut barglari asosan pilla qurtini boqishda ozuqa manbai bo‘lib xizmat qiladi, o‘rmon melioratsiyasida ham foydalaniladi. Har yili hosil beradi, bitta daraxtdan 20—50 kg meva terish mumkin.

**Qora tut (Moras nigra L.)**. Qora tut oq tutga nisbatan kam tarqalgan, asosan Eron, Markaziy Osiyo va Kavkazda o‘stiriladi. Uning barglari ipak qurti uchun kam ishlatiladi. Daraxti 10—15 m balandlikda bo‘lib, morfologik belgilariga ko‘ra oq tutda deyarli farq qilmaydi. Uning

mevalari oq tut mevalariga nisbatan qadirlanadi va oziq-ovqat sanoatida va vinochilikda bo‘yovchi sifatida ishlatiladi. Qora tutning xalq seleksiyasi mahsuli bo‘lgan shotut navi aholi tomonidan ko‘plab ekiladi. Asosan qalamchadan qimmatli navlari payvandlash yo‘li bilan ko‘paytiriladi.

### **Aylant yoki Xitoy shumtoli**

O‘zbekistonda uning bitta vakili — yuksak aylant yoki Xitoy shumtoli (**Ailanthus altissima( MiU)-Swingle.**) introduksiya qilingan. Aylant daraxti yoshligida qish sovuqlariga chidash bersa, qurib qolmasa, u yirik daraxtga aylanadi, 20—30 m balandlikkacha o‘sadi. Sovuqqa chidamsiz, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan,

qurg'oqchilikka, tutun-gazga chidamli. Mashina haraklanadigan yo'llarga trassa shaklida ekilmoqda. O'rmon melioratsiyasida jarliklar, qumlar, eroziyaga uchragan yerlarni mustahkamlashda katta samara beradi.

### **Tol (Salix) turkumi**

Ushbu daraxt turkimi Jizzax hududida ko'p tarqalgan. Ular daryo va ko'l bo'ylaridagi nam yerlarda o'sadi. Namga talabchan bo'lganligi uchun uni ko'proq kanallar, zovurlar, ariq va doimiy suv yoki namlik ko'p joylarga ekiladi. Buning sababi quyosh issiqlikni oqibatida parlanayotgan suv bug'ini tol barglari o'zida ishlab qoladi va yana yer ostiga yuboradi. Tuproq tanlamaydi. Unimdor tuproqlarda juda yaxshi o'sadi. Xalq xo'jaligida daraxt shoxlaridan savat to'qishda, o'rtacha kattalikda shoxlardan dexqonchilik ish anjomlariga tayanch qism sifatida foydalaniladi. Markaziy Osiyo florasida 70 turi bo'lib, ulardan 40 tasi mahalliy flora uchun oid, qolgan 30 tasi introduksiya qilingan turlardir.

Jizzax viloyatida ko'p tarqalgan turlari:

**Sinuvchan tol (Salix fragilis L.),**

**Echkitol (Salix caprea L.)**

**Qorator (Salix australior L.)**

**Majnuntol (Salix babylonica L.)**

Bulardan tashqari, turkumning **jung'or toli (Salix songorica Rgl.), turon toli (Salix tnratica Nas.), Tyan-Shan toli (Salix tianschanica Rgl.)** kabi turlaridan o'rmonchilikda va ko'kalamzorlashtirishda foydalaniladi.

### **JIYDADOSHLAR (ELAEAGNACEAE) OILASI**

Bu oilaning vakillari daraxt yoki buta o'simliklaridir. Bular qurg'oqchilikka va tuproqning sho'rtobligiga chidamli bo'lib, o'rmonzorlarni melioratsiya qilishda ahamiyatga ega. Bir joyda to'p-to'p o'sishi yavvoyi hayvonlarga boshpana bolib ham xizmat qiladi. Oila tarkibidagi turkumlardan jiyda va chakanda juda keng tarqalgan bo'lib, xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega. Tanasi baquvvat, qattiq va tikon bilan qoplangan. **Non jiyda** aholi tomonidan ko'plab o'stiriladi, aynisi uning sho'rlangan va

sizot suvlari tuproq yuzasiga yaqin joylarda o'suvchi ekotiplari o'rmonmelioratsiyasi uchun katta ahamiyatga egadir. Ko'kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi, Non daraxti qurg'oqchilikka chidamsiz lekin sovuqqa chidamli. Daryo qirg'oqlarini, jarliklarni mustahkamlashda keng foydalaniladi.

### **Saksovul (Haloxylon) turkumi**

Saksovul cho'l o'simligidir. Uning o'sish areali cho'llar va yarim cho'llar chegarasi bilan bog'liq. Qora yoki sho'rxok saksovuli (Haloxylon aphyllum ) Taqir cho'llarda, sariq-sho'rxoq tuproqlarda, sho'rlangan qumli va bo'z tuproqlarda o'sadi. Tuproqni himoyalash, ko'chma qumlarni to'xtatish, cho'l yaylovlari saqlash kabi cho'ldagi muhim vazifalarni bajaradi. Bundan tashqari, qorasaksovulzorlar katta xo'jalik ahamiyatiga ega. Chunki Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisi uchun ular mayda qurilish materiali hamda asosiy yonilg'ich manbasi bo'lib xizmat qiladi.

### **Sho'ra (Salsola) turkumi**

Sho'ralar qumliklar va qurg'oqchil chollarda sho'rlangan tuproqlarda o'sadi. Qumni mustahkamlashda sho'ralardan foydalaniladi, shuningdek, sho'ralar cho'l va yarim cho'llar hududida ko'kalam-zorlashtirish ishlarida hamda ixotazorlar yaratishda va yashil massivlar hosil qilishda foydalaniladi.

### **Yulg'un (Tamarix) turkumi**

Yulg'un yoki jing'il nomi bilan mashhur daraxt yoki buta turkumi. Ushbu tur Jizzax viloyatining tekistliklarida keng tarqalgan. Xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega. Cho'l hududlarida joylashgan asosiy massivlarning tuprog'ini muhofazalashda meliorativ ahamiyatiga ega. Bundan tashqari, terini oshlash sanoatida yulg'un bebaho va arzon xomashyodir. Po'stlog'ida, ko'k massasida bir yillik poyalari, barglari tarkibida 5—10 % oshlovchi moddalar mavjud. Mahalliy aholi azaldan terini oshlashda undan foydalangan. Xuddi boshqa cho'l o'simliklari singari, yulg'unlar ham issiqqa, qurg'oqchilikka chidamli, tuproqqa talabchan emas, ko'plari sho'rga chidamli. Tez o'suvchi, asal to'plovchi o'simlik. O'zining manzaraliligi tufayli

ko'kalamzorlashtirish ishlarida, ayniqsa, cho'l va yarim cho'llarning sho'rlangan tuproqlarida ekish uchun foydalanish mumkin.

### **Pista (Pistacia) turkumi**

Turkum tarkibida 8 ta tur bo'lib, ular o'rta Yer dengizi mamlakatlarida, Xitoyda va Meksikada tarqalgan. MDH florasida 2 turi uchraydi. Xandonpista kichik daraxt bolib, Markaziy Osiyoda turkumning bitta xandonpista (**Pistacia vera L**) turi o'sadi. Uning novdalari yashil kulrang, shoxlari kulrang, jigarrang mayda yasmiqchalari bor. Uning barglari uch bo'lakli, po'sti qalin, har ikkala tomoni tiniq yashil, yaltiroq, bo'yi 20 sm gacha, bargchalari tuxumsimon, uchi to'mtoq, tubi notekis, bandsiz bo'lib, navbat bilan joylashadi. Mevasi juda mazali, iste'mol qilinadi va oziq-ovqat sanoatida foydalaniladi. Mag'zi tarkibida 60—70 % moy bor. Tanasidan smola olinadi. Tanasi, bargi va mevalarida xushbo'y efir moyi boiadi. Bargida tannid moddasi bor. Xandonpista Markaziy Osiyodagi tog' qiyaliklarida yowoyi holda o'sadi. U Markaziy Osiyoda, Kavkazortida va Qrimda ko'p ekiladi. Qurg'oqchilikka va issiqqa juda chidamli. Ko'p sug'orilsa yoki erda nam haddan tashqari ko'p bo'lsa, qurib qoladi. Xandonpista asosan urug'dan ko'paytiriladi.

Jizzax viloyati hududida daraxt va buta turlari juda ko'p, tepada keltirilgan daraxt turlari shu hududdagi asosiylari hisoblanib kelinadi. Daraxt va buta turlarining kamayib ketishiga abiotik va ekologik omillardan ko'ra ko'proq antropogen omillarning ta'siri kuchliroq.

Aholi yashash hududlarining ko'plari gaz bilan taminlanmaganligi oqibatida daraxt va yog'och maxsulotlaridan foydalaniladi. Tut daraxtini barglari pillachilikda ishlatilganligi uchun ommaviy ravishda shoxlari qirg'iladi. Boshqa daraxtlardan issiqlik manbai sifatida ishlatiladi. Chorva hayvonlari boqilishi oqibatida yangi chiqqan novda va nihollar nobud boladi. Qishloq xo'jaligi ekinlari ko'p suv talab qilganligi uchun ochiq yerdagi daraxt va butalar suv yetib bormaydi. Nanga talabchan daraxtlar quruq va issiq ta'sirida unda transpiratsiya kuchayadi, ammo transpiratsiya uchun sarflanadigan zarur suvni darhol tuproqdan ololmaydi, natijada daraxt qurib qolishi mumkin. Shuning uchun ham daraxtlar kamayib ketmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Arifxanov K.T., Slavkina T.I. Dendrologiya Uzbekistana. tom.XI, Izd-vo FAN UzSSR. Tashkent. 1981.
2. Rusanov F.N. Dendrologiya Uzbekistana tom II. Izd-vo FAN UzSSR. Tashkent, 1968.
3. Rusanov F.N., Slavkina T.I. Dendrologiya Uzbekistana tom IV. Izd-vo FAN UzSSR. Tashkent 1972.
4. Rusanov F.N. Derevyia i kustamiki Botanicheskogo sada Akademii nauk UzSSR. Chast 1. Izd-vo AN UzSSR. Tashkent. 1955.
5. Xolyavko V.S. Globa-Mixaylenko D.A. Dendrologiya i osnovi zelenogo stroitelstva . Moskva, VO Agropromizdat, 1988.
6. Xanazarov A.A. Kayimov A.K. Lesnie resursi Uzbekistana. Tashkent, 1993.
7. Qayimov A.Q. Dendrologiya —T; «Ilm-ziyo».2007.
8. Yaskina L. V. Dendrologiya. —T; « O ‘qituvchi» 1980.
9. Google.com. Wikipediya 2023 y